ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

SIFAT YASASH VOSITALARINING QIYOSIY-TIPOLOGIK O'RGANILISHI.

Xurramova Ruxsora
Bakalavr talabasi, Oriental universiteti.
Daniyarova Mahliyo
Ilmiy rahbar.
xurramovaruxsora40@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24228238

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tilidagi sifat yasash vositalari, shuningdek, gap tuzilmasida tutgan o'rni, tafovut va o'xshashliklari tahlil qilinadi. Tipologik jihatdan turlicha bo'lgan bu ikki til sifat yasashda turlicha bo'lgan suffisk va affisklardan foydalanadi, o'zbek tilida sifatlar asosan o'zakka affikslar qo'shish orqali yasalib, drajalar ham qo'shimchalar orqali ifodalanadi, ingliz tilida esa sifatlar asosan suffikslar yordamida yasaladi.*

O'zbek tili agglutinativ bo'lgani uchun sifat yasovchi vositalar so'z oxiriga ketma-ket qo'shilsa, ingliz tilida sifat darajalari ya'ni qiyosiy va orttirma darajalarning bo'g'in soniga qarab turlicha shakllandi. Mazkuz tadqiqot ikki tilning qiyosiy tahlili orqali sifat yasalishidagi umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, bu farqlarni aniqlash til birliklarining funksional xususiyatlarini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar*: sifat, sifat darajalari, ingliz tili, o'zbek tili, suffiks, affiks.*

A COMPARATIVE TYPOLOGY OF ADJECTIVE FORMATION IN ENGLISH AND UZBEK.

Abstract. *This article analyzes the word-formation devices of adjectives in English and Uzbek, as well as their functions and positions within sentence structure, highlighting both similarities and differences. From a typological perspective, these two linguistically distinct languages employ different morphological strategies in adjective formation. In Uzbek, adjectives are predominantly formed through the addition of derivational affixes to a lexical stem, and degrees of comparison are likewise expressed by means of suffixation. As an agglutinative language, Uzbek allows adjective-forming affixes to be attached sequentially to the end of the word. In contrast, English primarily forms adjectives through the use of derivational suffixes. The formation of comparative and superlative degrees in English depends on the syllabic structure of the adjective: shorter adjectives typically take inflectional endings, whereas longer adjectives form degrees analytically. The present study aims to identify the common and distinctive features of adjective formation in the two languages through a comparative analysis. Identifying these differences contributes to a deeper understanding of the functional and structural characteristics of linguistic units in both language systems.*

Key words*: adjective, degrees of adjectives, uzbek language, english language, suffixes, affixes.*

Аннотация. *В данной статье анализируются способы словообразования прилагательных в английском и узбекском языках, а также их функции и место в структуре предложения, выявляются сходства и различия. С типологической точки зрения данные языки относятся к разным языковым типам и используют различные*

морфологические средства при образовании прилагательных. В узбекском языке прилагательные преимущественно образуются путём присоединения словообразовательных аффиксов к основе слова, а степени сравнения также выражаются с помощью аффиксации. Поскольку узбекский язык является агглютинативным, словообразовательные показатели последовательно присоединяются к концу слова. В английском языке прилагательные в основном формируются посредством деривационных суффиксов. Образование сравнительной и превосходной степеней зависит от слоговой структуры прилагательного: одно- и двусложные прилагательные, как правило, образуют степени сравнения синтетическим способом, тогда как многосложные — аналитическим способом. Настоящее исследование направлено на выявление общих и отличительных особенностей словообразования прилагательных в двух языках на основе сопоставительного анализа. Установление данных различий способствует более глубокому пониманию функциональных характеристик языковых единиц.

***Ключевые слова**: прилагательное, степень сравнения, английский язык, узбекский язык, суффикс, аффикс.*

Kirish

Ingliz va o’zbek tilidagi sifat yasovchi vositalarning tipologik o’xshashliklari va farqlari konstrastiv lingvistika uchun muhim bo’lib, gapdagi grammatik munosabatlarni ifodalashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular predmet yoki hodisaning belgisini boshqa predmet yoki hodisalar bilan taqqoslash imkonini beradi. Biroq, ularning ifodalanishi va qo'llanilishida sezilarli farqlar kuzatiladi, masalan, ingliz tilida sifat darajalarining ifodalanishi ko'proq sintetik usulga, *qo'shimchalar orqali*, asoslangan bo'lsa, o'zbek tilida analitik usul, *yordamchi so'zlar*, orqali ko'proq qo'llaniladi [1]. Bundan tashqari, ingliz tilida sifatning bo'g'in soni uning daraja shaklini yasash usulini belgilaydi, o'zbek tilida esa bunday qoida mavjud emas.

Asosiy qism

O’zbek tilida sifat asosan predmentning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi va darajalanuvchi so’z sifat deyiladi. Boshqa so’z turkumi ham belgi ifodalaydi, ammo sifat barqaror va turg’un belgini ifodalashi bilan ajralib turadi. Belgi tushunchasi o’z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabilarni qamrab oladi, va shu xususiyatlariga ko’ra sifat ikkiga bo’linadi: *asliy sifatlar* va *nisbiy sifatlar*. Asliy sifat predmentning turg’un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *qizil, katta, ko’p*. Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predment, belgi miqdor, o’rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: *moddiy yordam, burchakdagi o’tirg’ich, siniq payola*. Lekin u daraja belgisiga ega bo’lgan ravishdan asosan predment belgisini bildirishi bilan farqlanadi. O’zbek tilida sifatlar ikki usulda yasaladi va fanda sifat derivatsiyasi deb ataladi. Birinchi usul, bu affiksatsiya usulidir. Bu usulda ot, harakat nomidan so’ng –li, -dor, qo’shimchalari qushiladi va asosdan anglashinilgan narsa, predmentga egalik, shunigdek, asosodan anglashinilgan narsa, predmentning me’yordan ortiq ekanligini ifodlaydi. *Ba-, be-, no-*, kabi affikslar asosdan anglashinilgan narsaning yo’qligini bildiruvchi sifat yasaydi.

ISSN: 2181-3906 2026

International scientific journal
«MODERN SCIENCE AND RESEARCH»
VOLUME 5 / ISSUE 11 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ

Fe’l so’z turkumiga *–choq/chiq/chak, -qoq, -ag’on, -mon, -ma* kabi sufikkslari qo’shilsa asosdan anglashilgan xususiyatga moyilikkni, harakatni bajarishga moyillikning kuchligini bildiruvchi va predmentning asosdan anglashilgan harkat usuli bilan yuzaga kelish belgisini bildiruvchi sifatlar yasaladi: *erinchoq, tortinchoq, qizg’anchiq, chopag’on, ag’darma, ko’chma, bo’rama* va h.k. Ikkinchi usul esa kompozitsiya usuli hisoblanadi va bu usul asosan qo’shma va juft sifatlardan hosil bo’ladi. Masalan, ot+ot*; dilorom, otashnafas, kafangado*, sifat+ot; *sho’rpeshina, kaltafahm, balandparvoz* yoki ot+sifat; *jig’ibiyron, tepakal, xonavayron*. Ravish+fe’l; *tezpishar, cho’rtkesar*, fe’l+fe’l; *yebto’ymas*, shu tarzda, ya’ni so’z turkumlari orqali sifat yasaladi [2].

Ingliz tilida ham o’zbek tilidagidek predmentning belgi yoki xususiyatni bildiruvchi so’zlarga sifat deyiladi, va strukturasiga ko’ra sodda, yasama va qo’shma sifatlarga bo’linadi. Tub morfemalardan iborat bo’lgan siftalar sodda deb ataladi: *big, warm, green, dry*. Yasama sifatlar esa tub sifatlarga so’z yasovchi affikslar qo’shilishidan tashkil topadi, masalan, *care-ful, cream-y*. Sifat bir vaqtning uzida bir o’zak va bir nechta affikslardan iborat bo’lishi mumkin, ammo o’zak bitta bo’lganligi sababli u yasama yoki derevativligicha qoladi. Umuman, so’z strukturasi so’zga o’zakning yoki o’zakka morfemaning xarakatiga qarab belgilanadigan sifatlarga qo’shma sifatlar deyiladi. Ular o’z navbatida oddiy qo’shma sifatlar: *trouble-free, sea-born*, va qo’shma yasama sifatlarga: *blackguardly, kind-hearted*, bo’linadi. Yuqoridagi qo’shma sifatlarga turli predlog, bog’lovchi va boshqa so’zlar vositasida yasalgan so’zlarni ham qo’shish mumkin: *coast-to-coast, black-and-white television* [3]. Shuningdek, hozirgi ingliz tilida sifatning darajalari asosan morfologik va sintaksis usul bilan yasaladi. Bir yoki ikki bo’ginli va ba’zan ko’p bo’g’inli so’zlarga *er, est* suffikslarining qushilishi qiyosiy va orttirma daraja formalarining morfologik usul bilan yasalishi hisoblanadi: *sweet-sweeter-sweetest, short-shorter-shortest, big-bigger-biggest*.

Bundan tashqari, ingliz tilida prifikslar yordamida sifat yasash mumkin, bu ingliz tilida prefixation prefikatsiya deyiladi, va *uneccaptable, unfinished, prehistoric, extraordinary, extraviolet, prewar* kabi so’zlari misol bo’la oladi. Qo’shma sifatlar so’z turkumlari orqali ham yasalashi mumkin. Masalan, **sifat+sifat**; *ivory-white, deep-brown, dark-red*, **sifat+ot**; *high-grade, left-hand, high-speed*, **ot+ot**; *cock-eye, kid-glove, hair-trigger*, **ot+sifatdosh**; *air-borne, hand-made, tongue-tied, lion-hearted, living-saving, home-keeping* [4].

O’zbek va ingliz tilida sifat yasalishining o’xshashliklari va tafovutlari: o'zbek tilida oddiy daraja hech qanday qo'shimchasiz ifodalanadi masalan, *katta, yaxshi, go'zal.* Qiyosiy daraja: *-roq* qo'shimchasi yoki *nisbatan, ko'ra* kabi so'zlar yordamida ifodalanadi: kattaroq, nisbatan yaxshi.

Orttirma daraja esa *eng, juda, g'oyat* kabi so'zlar yoki sifatning takrorlanishi orqali ifodalanadi masalan, *eng katta, juda go'zal, katta-katta*. Ingliz tilida esa qiyosiy, orttirma, oddiy darajalar asosan –er, -est, more kabi suffikslarninf qushilishi orqali yasaladi. undan tashqari, ingliz tilida ba'zi sifatlarning noto'g'ri shakllari ham mavjud masalan, *good - better - best*, o'zbek tilida esa bunday holatlar deyarli uchramaydi. Ingliz tilida sifatning bo'g'in soni uning daraja shaklini yasash usulini belgilaydi, o'zbek tilida esa bu qoida mavjud emas. Bu farqlar ikkala tilning turli til oilalariga mansubligidan kelib chiqadi.

Ingliz tili hind-yevropa tillar oilasiga, o'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub. Bu esa ularning grammatik tuzilishida sezilarli farqlar mavjudligini tushuntiradi [5].

Xulosa

Ushbu maqolada ingliz va uzbek tillarida sifatning turli xil usullari bilan yasalishi tahlil qilinib o'rganildi. O'zbek tilida sifat darajalarini ifodalashning ko'proq usullari mavjud, bu esa tilning ifoda imkoniyatlari kengroq ekanligini ko'rsatadi. Har ikki tilda sifat darajalarining uch asosiy turlari *oddiy, qiyosiy va orttirma* mavjud bo'lib, bu ularning universal grammatik kategoriya ekanligini ifodalaydi. Bu maqola ingliz va o'zbek tillardagi sifat yasalishining tipologik o'xshashliklari hamda faqrlarini o'rganish zamonaviy lingvistika uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Sayfullayeva. R, Mengliyev. B, Boqeyeva. G, Qurbonova. M, Yusupova. Z, Abuzalova. M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. -237b.
2. Buronov. J, Hashimov. U, Ismatullayev. H. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1974 – 48b.
3. Buronov. J, Hashimov. U, Ismatullayev. H. Ingliz tili grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 1974 – 68b.
4. Jabborova. R. ``o'zbek va ingliz tilida qo'shma sifatlarning yasalishi: qiyosiy tahlili`` maqolasi. –Toshkent: SamDCHTI ingliz filologiyasi.
5. Jurayeva. D. ``Ingliz va o'zbek tillaridagi sifat darajalarining qiyosiy tipologiyasi`` maqolasi. –Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universetiti